




QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar*


2024- yil yanvar-mart

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

yanvar-mart, o'sish darajasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan, ming so'm



Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori dinamikasi, so'mda




Ma'lumot uchun: Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga 2023 - yil 1 - dekabr dan o'zgartirish kiritildi hamda **1 050,0 ming so'mga** yetkazildi.

2024 - yil yanvar-mart oylari uchun o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichini shakllantirishda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari **hisobga olinmagan**, chunki fermer xo'jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari **yilda bir marta** hisobot taqdim etishi belgilangan.


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o'rinlarda – o'rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo'shimcha to'lovlar, mukofot pullari, rag'batlantiruvchi to'lovlar, kompensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to'lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.


O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi, yanvar-mart, ming so'm



2023-2024- yillarda o'rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm




2024 - yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng baland ko'rsatkichi – Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish darajasi **131,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, axborot va aloqa sohasi **126,2 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi **122,3 %**, ta'lim sohasi **115,6 %**, tashish va saqlash sohasi **113,8 %**, sanoat sohasi **112,3 %**, hamda savdo sohasida **104,1 %**, ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

SANOAT SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



8 429,2

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



5 192,3

Ishlab chiqarish
sanoati



2 845,7

Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish




6 854,4

Elektr, gaz, bug'
bilan ta'minlash va
havoni konditsiyalash



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i (**8 429,2 ming so'm**), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (**6 854,4 ming so'm**) hamda ishlab chiqarish sanoati (**5 192,3 ming so'm**) da kuzatildi.

Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nishon tumani (**10 897,3 ming so'm**), Muborak tumani (**7 589,6 ming so'm**), G'uzor tumani (**7 238,4 ming so'm**) Dehqonobod tumani (**6 381,6 ming so'm**) hamda Qarshi shahar (**6 183,3 ming so'm**) kuzatildi.


Hududlar kesimida



QURILISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida




Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Chiroqchi tumani (**8 171,2 ming so'm**) va Muborak tumani (**5 423,8 ming so'm**), Qarshi shahri (**5 013,3 ming so'm**), da qayd etildi.

Qurilish sohasida o'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




SAVDO SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi 2023-yil dekabr oyi (**3 891,2 ming so'm**) da bo'lib, 2024-yil esa mart oyi (**3 606,4 ming so'm**) da kuzatildi.


Hududlar kesimida



ming so'm



Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




ming so'm


o'sish sur'ati

Savdo faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Qarshi tumani (**5 255,8 ming so'm**), Qarshi shahri (**3 578,7 ming so'm**), hamda Kitob tumanida (**2 518,0 ming so'm**) qayd etildi.


TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



HUDUDLAR KESIMIDA




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Muborak tumani (**10 924,8 ming so'm**) hamda Qarshi shahrida (**5 873,6 ming so'm**) da kuzatildi.


AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming so'm*




Axborot va aloqa faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Qarshi shahri (**8 781,6 ming so'm**) da kuzatildi.


BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Shahrizabz tumanida (**14 083,4 ming so'm**) hamda Qarshi shahri (**11 044,9 ming so'm**) da kuzatildi.

TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




■ ming so'mda
o'tgan yilining mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da



Hududlar kesimida

Ta'lim sohasi bo'yicha bir qator tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichi Qarshi shahri (**4 204,0 ming so'm**), Shahrisabz shahri (**3 633,9 ming so'm**), Qarshi tumani (**2 919,4 ming so'm**) da kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari ta'lim sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi. Shahrisabz tumanida (**2 408,8 ming so'm**), Yakkabog' tumanida (**2 466,9 ming so'm**), Kasbi tumanida (**2 519,9 ming so'm**), Dehqonobod tumanida (**2 525,8 ming so'm**) hamda Mirishkor tumanida (**2 525,9 ming so'm**) qayd etildi.




● ming so'm




QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha bir qator tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichi Koson tumani (**3 098,4 ming so'm**), Qarshi shahri (**2 971,7 ming so'm**), Kasbi tumani (**2 968,6 ming so'm**), da kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi. Nishon tumani (**1 745,0 ming so'm**), Dehqonobod (**2 032,2 ming so'm**) hamda Ko'kdala (**2 084,5 ming so'm**) tumanlarida qayd etildi.

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



DEMOGRAFIYA VA MEHNAT STATISTIKASI BO'LI MI

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.



Tel.: (75) 221-15-84